

Date: 1st June-2025

**PROFILAKTIKA INSPEKTORINING ILGARI SUDLANGAN SHAHSLAR
BILAN MANZILLI ISHLASH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH**

To‘lqinov Diyorbek Alisher o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kunduzgi

ta’lim 3-o‘quv kursi 310-guruh kursanti

Utepov Dilmurod Sheraliyevich

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati kafedrası katta o‘qituvchisi, podpolkovnik

Annatsiyasi: Profilaktika ispektorining ilgari sudlangan shaxslar o‘rtasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati – bu jinoyat sodir etganligi uchun sudning hukmiga asosan jinoiy jazoni o‘tab chiqqan shaxslar bilan olib boriladigan huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi hamda viktimologik profilaktikasining ichki ishlar organlarining boshqa soxaviy xizmatlari va keng jamoatchilik bilan hamkorlikdagi ijtimoiy, huquqiy, tashkiliy, psixologik va pedagogik chora-tadbirlardan iborat faoliyat tushuniladi. Bu faoliyat bevosita ilgari sudlangan shaxsga qaratilishi bilan o‘ziga xos ahamiyatga egadir.

Abstract: Prevention inspector's work on the prevention of offenses between previously convicted persons is a general, special, individual and victimological prevention of offenses carried out by persons who have served a criminal sentence based on the court's verdict for committing a crime, in cooperation with other specialized services of the internal affairs bodies and the general public, activity consisting of legal, organizational, psychological and pedagogical measures is understood. This activity is of special importance as it is directed directly at the previously convicted person.

Kalit so‘zlar: huquqbuzarliklar profilaktikasi, ilgari sudlangan shaxs, profilaktik hisob, ma’muriy na’zorat, huquqbuzarlik, hamkorlik.

Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta’minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash maqsadida: keng jamoatchilik muhokamasi natijasida Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari» tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan quyidagi yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni amalga oshirishga oid davlat dasturi qabul qilindi:

-inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;



Date: 1st June-2025

-mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;

-milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash;

-adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;

-ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;

-milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;

-mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish. Ushbu farmon orqali mamlakatimizni keyingi besh yillikda jadal sur'atlarda rivojlantirish maqsad qilib qo'yilgan va bu maqsadni amalga oshirish uchun albatta, yurtimiz tinch va totuv bo'lishi lozim. Buning uchun birinchilardan bo'lib xuquqni muxofaza qiluvchi organlar mas'uldir.

Ilgari sudlangan shaxslar tomonidan takror huquqbuzarliklar sodir etilishini oldini olish shuningdek, ularga tarbiyaviy ta'sir o'tkazish maqsadida ichki ishlar organlarining profilaktika xizmatlari tomonidan hisob profilaktik ishi yuritiladi. Bu toifa shaxslarni hisobga qo'yish uchun asos bo'lib – sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi, shaxsning jazoni ijro etish muassasasidan ozod qilinganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma yoki uning sudlanganligini isbotlovchi boshqa hujjatlar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi "Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ2896-sonli qarorida ichki ishlar organlarining eng muhim vazifasi huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlari faoliyatini sifat jihatidan yaxshilash, ularning aniq faoliyat yo'nalishlarini belgilab berish; jamoatchilik bilan hamkorligini takomillashtirish, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirish, voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni turli salbiy ta'sirlardan asrash; profilaktika inspektorlarining faoliyatini takomillashtirish, jamoatchilik oldida tizimli ravishda hisobot berishlarini yo'lga qo'yish; profilaktika inspektorlari faoliyati samaradorligini baholashning ta'sirchan mezonlarini ishlab chiqish va joriy etish; huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng tatbiq etish, profilaktika inspektorlarining kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirish tizimini takomillashtirish etib belgilandi.

Huquqiy adabiyotlarda ilgari sudlangan shaxs iborasi ishlatilganda shaxsning ilgari jinoyat sodir etganligi uchun sud tomonidan hukm etilganligidan kelib chiqadigan huquqiy holat tushuniladi. Jazo tayinlangan ayblov hukmi kuchga kirgan kundan boshlab shaxs sudlangan hisoblanadi hamda shaxs huquqbuzarliklar yoki jinoyat sodir etganda huquqiy ahamiyatga ega bo'ladi.

Sudlanganlik muddati tugamagan yoki olib tashlanmagan shaxslarga nisbatan amaldagi qonunlarda belgilangan huquqiy oqibatlar, shu jumladan ular bilan profilaktik ishlarni amalga oshirish nazarda tutilgan. Ikkinchi guruhga kiruvchi, ya'ni sudlanganlik



Date: 1st June-2025



muddati tugagan yoki olib tashlanganlarga nisbatan amaldagi qonun hujjatlariga binoan profilaktika xizmatlariga nisbatan alohida ta'sir choralari amalga oshirish majburiyati yuklatilmagan bo'lsa-da, amaliyotda bunday toifadagi shaxslarga ham diqqat e'tiborda bo'lishi kuzatiladi. Sudlanganlik muddati tugamagan va olib tashlanmagan ilgari sudlangan shaxslarni ularga nisbatan amalga oshiriladigan profilaktik choratadbirlar mazmunidan kelib chiqqan holda tasniflash maqsadga muvofiq.

Ilgari sudlangan shaxslar:

1. Jazoni o'tab chiqqan ilgari sudlanganlar:

–ma'muriy nazoratdagilar;

–ma'muriy nazorat qonuni ta'siri ostiga tushuvchi shaxslar; – ma'muriy nazorat qonuni ta'siri ostiga tushmaydiganlar.

2.Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazoni o'tayotgan ilgari sudlanganlar:

–axloq tuzatish ishlari jazosini o'tayotganlar;

–muayyan huquqdan mahrum qilish jazosini o'tayotgan.

3.Boshqa jinoiy huquqiy ta'sir chorasi qo'llanilgan ilgari sudlangan shaxslar:

– shartli hukm qilingan ilgari sudlanganlar.

Jazoni o'tash joyidan bo'shab qaytgan ilgari sudlangan shaxslar ijtimoiy-foydali mehnatdan bo'yin tovlab , mehnat qilishni istamasa , ichki ishlar organlari profilaktika inspektori ilgari sudlangan shaxslar hayot kechirish manbai, mehnat bilan shug'ullanmaslik sabablarni o'rganadilar va ilgari sudlangan shaxslar mehnatga jalb etish choralarni ko'radi. Ilgari sudlangan shaxslarning ijtimoiy hayotga moslashuvi ko'p tomonlama tevarakatofdagilarning ma'naviy qo'llab-quvvatlashga, xususan profilaktika inspektori tomonidan ilgari sudlangan shaxslar ish va turar joy bilan ta'minlashda yordam ko'rsatishga, ilgari sudlangan shaxslarning xulq-atvori ustidan ishlab chiqarish jamoalarida yashash joyida bo'sh vaqtlarni o'tkazishda nazorat olib borish kerak bo'ladi. Ilgari sudlangan shaxslarga oid ma'lumotlarni ya'ni sudlangunga qadar aloqalarni, maishiy va oilaviy sharoiti , turar joyining bor yoki yo'qligi, oiladagi vaziyatlar va oila a'zolarining unga bo'lgan munosabatlari, moddiy ta'minoti,xususan jazoni o'tashda qo'rsatgan xulq-atvori, tarbiyaviy va axloq tuzatish vositalariga bo'lgan munosabati, uning tuzalish darajasi chuqur va har tomonlama o'rganish shart hisoblanadi. Profilaktika inspektori diqqat bilan o'rganishi va ilgari sudlangan shaxslar toifasi bilan yakka tartibda profilaktik chora tadbirlarni ishlab chiqishda e'tiborga olinishi kerak bo'ladi.

Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan ilgari sudlangan shaxslarni ish bilan ta'minlashda ularning ishga joylashishni, joylashgan taqdirlarida esa ishga bormaslik xolatlari yoki ularni biror bir faoliyat bilan shug'ullanishda kredit olish masalalari bo'yicha bir qator muammolarning mavjudligi. Ushbu muammoni bartaraf etish yuzasidan quyidagi taklif mavjud Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan ilgari sudlangan shaxslarni ish bilan ta'minlashda ularning ishga joylashishni, joylashgan taqdirlarida esa ishga bormaslik xolatlari yoki ularni biror bir faoliyat bilan shug'ullanishda kredit olish masalalari bo'yicha

Date: 1st June-2025

bir qator muammolarning mavjudligi. Ushbu muammoni bartaraf etish yuzasidan quyidagi taklif mavjud

Taklif: jazoni ijro etish muassasalaridan ozodlikka chiqqan shaxslarning jamiyatga moslashishi yoki ularni boshqa insonlar qabul qilishining qiyin kechishi. Ushbu muammoni bartaraf etish yuzasidan quyidagi taklif mavjud:

Taklif: axoli o'rtasida ilgari sudlangan shaxslarga nisbatan yaxshi kayfiyatni shakllantiruvchi umumiy chora-tadbirlarni amalga oshirish, ya'ni televidiniyalarda turli ko'rsatuvlar tayyorlash, shu mavzuga oid videoroliklar tayyorlash va namoyish etish, maxallalarda shu mavzuda yig'ilishlar o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentabrdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 apreldagi "Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazorat to'g'risida"gi qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 noyabrdagi "Ichki ishlar organlar kadrlar bilan ishlash va ularning xizmatini tashkil etishni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 3413-sonli qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 maydagi "Xuquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2833sonli qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 10 apreldagi PF-5005-sonli Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 apreldagi "Ichki ishlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2883-sonli qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 noyabr'dagi "Jinoyat ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4006-sonli qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoevning 2021 yil 26 martdagi "Jamoat xavfsizligini taminlash va jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida Ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jixatdan yangi bosqichga ko'tarish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF6196-son Farmoni.

